

## JEYMS FENIMOR KUPERNING “DENGIZ” ROMANLARIDAGI RAMZLARNING SEMANTIK VA BADIY HUSUSIYATLARI

Kozakova Oydin Sobirjonovna

Namangan Davlat Universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mashxur amerikalik yozuvchi James Fenimor Kuperning “dengiz” simvoli asos qilib olingan romanlarining adabiylik jihatidan va o'ziga hos semantik tuzilishga ega ekanligi haqida yoritiladi. James Fenimor Kuper o'zbek adabiyotida Amerika indeyslari hayoti roman turkumlari bilan mashhur. Maqola muallifi shu jihatni hisobga olgan holda yozuvchining dengiz sayohatlariga oid romanlarining badiiy va semantik strukturasini ilmiy maqolalar va izlanishlar natijasini bafurja yoritib berishga harakat qildi.

**Kalit so'zlar:** maritime, romantika, tarixiy sarguzasht, Amerika inqilobi

Jahon adabiyoti juda ham ko'p adib va yozuvchilarning nodir va takrorlanmas asarlariga boydir. Shu bilan birgalikda yillar asrlar mobaynida turlicha yozish uslublari, adabiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ushbu adabiy yo'nalishlar asarlarga o'zgacha ma'no va zeb berib, o'quvchini asar voqeliklariga turli tomondan yondashish imkonini berdi. Hozirgi kunda o'zbek kitobxoniga zamon bilan hamnafas ravishda jahon adabiyoti durdonalaridan namunalar, nodir asarlar tarjimalarini yetkazib berish jadal ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu asarlar orasida amerikalik yozuvchi Jeyms Fenimor Kuper asarlarini ko'rish o'quvchi ko'zini quvontiradi. Chunki uning indeyslar hayotiga bag'ishlangan romanlar turkumlari o'zbek kitobxonlari orasida juda katta o'ringa ega.

Jeyms Fenimor Kuper 1789 – yil Amerikaning Nyu Jersey shtatida zodagon oilasida tug'ulgan. Uning keying hayoti Nyu York shahrida davom etadi. U Yale universitetiga o'qishga kiradi, ammo 3 yili u yerdan haydaladi. Otasining vafotidan keyin u va uning aka ukalarga katta miqdorda boylik qoladi. 1806 – yilda 17 yoshida “Sterling” [1] nomli savdo kemasi ekipajiga dengizchi sifatida qo'shiladi. Bu kema bilan turli dengiz sayohatlariga chiqib, o'zi yashab turgan jamiyat va boshqa jamiyatlar orasidagi farqlar, jamiyatdagi tengsizlik, kamchiliklar va siyosiy tuzum haqida o'rganadi. Bu kabi dengiz safarlarining ahamiyati uning takrorlanmas romanlari yaratilishi uchun asos deb belgilasak xato bo'lmas. Keyinchalik esa u Amerika Qo'shma shtatlari dengiz kuchlariga qabul qilindi.

Kuperning yozuvchilik faoliyati boshlanishiga uning rafiqasi Syuzan Ogyust Delansi sababchi bo'ldi. Ayoli unga turli romanlarni o'qib berganova Kuper esa undan ko'ra yaxshiroq yoza olishini ta'kidlagan. 31 yoshida Jeyms o'zining birinchi "Ehtiyotkorlik" romanini yozdi, lekin uzoq vaqt mobaynida ushbu asarini jiddiy deb qabul qilmadi. Keyinchalik esa, qarindoshlari, do'stlarga o'qib berib o'zining ilk ijod namunasi unchalik ham yomon emasligini anglatdi. Keyinchalik bu narsa uning yozuvchilik faoliyatda muafaqqiyatli yo'lni ochib berdi, u o'zining ilk romanini nashriyotga olib bordi. Roman bir qator jurnallarda muallif ko'rsatilmagan holda nashr etilgan va deyarli e'tiborga olinmagan, ammo Kuper umrining oxirigacha nima qilishni xohlaganini anglagan. "Ehtiyotkorlik" romani Amerika inqilobi tarixini yorituvchi roman edi. Keyinchalik yozilgan "Josus" tarixiy sarguzasht uslubida yozilgan bo'lib yozuvchiga katta shuxrat keltirdi.[2] Kuper ijod faoliyati davomida 32 ta roman, 10 jilddan ortiq sayohatnomalar va bir necha jild publisistik asarlar yozgan. "So'nggi mogikan"(1826), "Cho'l"(1827), "Izquvar"(1840), "Chingachguk — ulkan ilon"(1841) va boshqa romanlarida oq tanlilarga qarshi kurashgan Amerika indeyslarining hayoti, vatanparvarligi tasvirlangan. "Lotsman"(1823), "Boston qamali"(1825) romanlari dengizchilarining sarguzashtlariga bag'ishlangan. Yevropadagi voqealar tasvirlangan tarixiy romanlar turkumi ("Qandingni ur", 1831; "Geydenmauer yoki Benediktliklar", 1832; "Jallod yoki uzumzorlar abbatligi", 1833 va b.) Kuper ijodida muhim ahamiyat kasb etgan. Kuper 30-yillarning 2-yarmidan boshlab Amerika hayotidagi illatlarni fosh etuvchi hajviy asarlar yoza boshlagan. «Monikinlan» (1835) romanida ma'rifatparvarlar va J. Swift ijodiga xos ramziylik, majziylik an'analarini davom ettirgan. Amerika adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan Kuper asarlari jahondagi ko'plab tillarga tarjima qilingan, ular asosida kinofilmlar ishlangan.[3]

Kuperning dengiz sayohatlariga oid "Lotsman" va "Boston qamali" asarlari uning dengiz sayohatlari, dengizda kechgan kunlari va ishlagan vaqtlaridan ilxomlangan holda yozilgan deb ayta olamiz.

"Lotsman" asari Kuperning tarixiy romani bo'lib, birinchi marta 1824 – yil yanvar oyida nashr etilgan. Undagi ko'tarilgan mavzu amerika inqilobi davridagi dengizchining hayotidir. Bu asar Amerika adabiyotida dengiz fantastikasi uchun yaxshigina misol bo'la oladi. U bu asarni Skottning "Qaroqchi"(1821) asaridan o'zib ketish maqsadida yozadi.[4] Asl kasb faoliyati dengizchillikka oid bo'lgani uchun bunga muvaffaq bo'ladi. U ushbu asarida yangi adabiy tur – dengizdagi sarguzasht ertakni yaratdi. Undan boshqa yozuvchilar ham shu yo'nalishda qalam yuritishgan bo'lsada, Kuperning "Lotsman" asari o'ziga hos o'rinni saqlab qoldi. Ushbu asarda

o'zining ish faoliyatiga oid voqealari shu asarida qalamga olgan bo'lsada, undagi asosiy motiv qahramon Jon Pol Jones hisoblanadi. Bu qahramon faqat qorong'u o'tmish, qorong'u taqdir haqida o'ylaydi.U o'zini faqat Britaniya sohillaridagi xavfli reydlarga uradi. Yozuvchi uning hatti harakatini sadoqat va mexr muhabbat deb ifodalaydi.[5]

Yozuvchi ushbu asarida isyonchi Amerika dengiz kuchlari kemalari va ularning ekipajlari ingliz tuprog'iga bostirib kirishlari, Britaniyaning taniqli fuqarolarini qo'lga olish va urushda muzokaralar olib borish maqsadida ushlab turishlari haqida hikoya qiladi. Asar syujeti faqat birgina yo'naliш bilan cheklanib qolmaydi, o'quvchi kutilmagan holatda boshqa syujetlarga duch keladi. Bu asar kitobxonlar uchun ajoyib klassika bo'lib, romantika muxlislarini qiziqtirishi mumkin, lekin asosiy o'rinda sarguzasht va okean yelkanli kemalari tafsilotlari turadi. [6]

Yozuvchining keyingi dengiz tasvirli asari "Boston qamali" dir. Bu asar ham o'ziga hos ravishda o'z kitobxonlarini topgan.Amerika inqilobi boshlanganining ellik yilligi munosabati bilan yozilgan Lionel Linkoln tarixiy fantastikadagi tubdan yangi tajriba edi. O'z voqealarini eng aniqlik bilan qayta tiklash uchun Kuper 1824 yilda binolar va erlarni o'rganish, jang maydonlarini o'rganish, tasdiqlarni o'qish, ob-havo yozuvlari bilan maslahatlashish va asosiy manbalarni solishtirish uchun Bostonga shaxsan tashrif buyurdi.[7] Jorj Bankroft 1852 yilda Kuper "Bunker tepaligidagi jangni boshqa asarlarda tasvirlanganidan ko'ra yaxshiroq tasvirlagan" deb e'lon qildi.Ushbu asarda yozuvchining asl maqsadi Amerika respublikachiligi va Amerika inqilobini maqtashi kerak bo'lsada, asar qahramonlari Lionel Linkoln va uning rafiqasi nihoyada Britaniyaga qaytib kelishadi. Unda ko'tarilgan asosiy mavzulardan biri bu Linkolnning Amerika inqilobiga qo'shilish – qo'shilmasligidir. Syujetda esa uning Amerikani inglizlardan ko'ra afzal ko'rishi yoritiladi. Asarni tadqiq etish davomida tanqidchi Donald Donnel bu hususiyatini Kuperga hos qahramonlarga ataylab berilgan salbiy hususiyat deb baholaydi. Pol Jonatan Vulf esa asar qahramonlarini Amerikada qolishi tashvishli oqibatlarga olib kelishi mumkin edi deb mulohaza beradi. Josef Steynbrink Lionel Linkoln Kuperning "tarixiy fantastikadagi birinchi va oxir-oqibat yagona qat'iy urinishi" deb atadi. Bunga sabab zamondoshlari tarafidan romanning yaxshi qabul qilinmasligi Kuperning tarixiy fantastik yo'naliشidan voz kechishiga sabab bo'ldi. Steynbrinkning fikricha, romanning muvaffaqiyatsizligi Kuperning xarakter va syujet rivojlanishini Amerika inqilobi tarixiga qo'shib bera olmagani sabab bo'lgan.[8]

Ba'zi mumkin bo'limgan voqealar yortiliganiga qaramay, u 1775 yilda yuzaga kelgan ijtimoiy, siyosiy va harbiy ziddiyatlarning talqini sifatida bugungi kunda qiziqish va o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Xulosa o'mnida shuni aytib kerakki, Kuper ijodi rang baranglikdan iborat. Uning nafaqat quruqlik balki suv yuzasidagi romanlari ham ko'plab badiiy simvollarga boy. Uning tarixiy sarguzasht yo'nalishidagi asarlari ko'plab tanqidchilar va adabiyotchilar tomonidan bahs qilingan, o'rganilgan. Asarlarodagi qahramonlar faqat yorqin, hislatlarga boy qilib talqin qilinmaydi, balki voqealar hodisalar mohiatida ularning salbiy harakter va husuiyatlari ham keltiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. en.wikipedia.org/wiki/James\_Fenimore\_Cooper
2. NasrullahMambrol "Analysis of James Fenimore Cooper's Novels", 2018
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlaynantologiyasi/jeyms-fenimor-kuper-1789-1851-aqsh>
4. The Encyclopedia Americana (1920)/Pilot, The tale of the sea
5. The "keen-eyed critic of the ocean": James Fenimore Cooper's Invention of the Sea Novel, by Luis Iglesias at the Cooper Panel of the 2006 Conference of the American Literature Association in San Francisco.
6. Carl Van Doren (1920). "Pilot, The" . InRines, GeorgeEdwin (ed.). EncyclopediaAmericana.
7. Williams, Jr., Kennedy (1978). George A. Test (ed.). Cooper's Use of American History.
8. Betty Ealine Nichols "James Fenimore Cooper's Lionel Lincoln, 1972